



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING BOG'LANISHLI NUTQINI O'STIRISH YO'LLARI VA USULLARI

Umarova Umida Ibaydullayevna

Andijon Davlat Pedagogika instituti

2 – kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7457032>

Annotatsiya: Maqolada Maktabgacha yoshdagi bolalarning bog'lanishli nutqini o'stirishda talaffuzning ahamiyati,tutgan o'rni,monologik va dialogik nutqning yoshga doir xususiyatlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Bog'lanishli nutq, monologik nutq, dialogik nutq,talaffuz, "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi, kompetensiya, yosh guruhlari, sahnalashtirilgan o'yinlar, mantiqiy tafakkur, faollik markazlari, yil fasllari, interfaol ta'lim texnologiyasi, interaktiv pedagogik texnologiya.

Abstract: In the article, the connected speech of preschool children the importance and role of pronunciation in education, age-related features of monologic and dialogic speech are described.

Keywords: Connected speech, monologic speech, dialogic speech, pronunciation, First Step state curriculum, competence, age groups, staged games, logical thinking, activity centers, seasons, interactive education lim technology, interactive pedagogical technology.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda nutqni tushunish biroz murakkab jarayon. Bu maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilaridan katta mahorat talab qiladi. Endi nutq faqatgina aloqa vositasi emas, balki kattalarning so'zlar bilan tushuntirishi orqali bilim manbaini hosil qiladi.Bolaning kattalar va tengdoshlar bilan muloqotida nutq rivojlanadi va o'zaro fikr almashinushi ta'minlanadi. Bolalar bilan faol muloqot bola tasavvurini boyitadi, tafakkurini kengaytiradi. Ko'p so'zlashish orqali bolaning nutqi fellar, olmoshlar, sifatlar, ravishlar, old qo'shimchalar bilan boyiydi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida har bir bola o'z fikrini mazmunli, grammatik jihatdan to'g'ri bir -biriga mantiqan bog'langan holda bayon qilishga o'rganishi lozim. Bog'langan nutqda bolaning mantiqiy tafakkuri, idrok qilganlari yuzasidan fikrlashi va mantiqiy nutqda uni to'g'ri, aniq, ravon bayon etishi aks etadi. Bolaning o'z fikrlarini bayon etishiga qarab, nutqining rivojlanganlik darajasini bilish mumkin.

Tarbiyalanuvchilarda bog'lanishli nutqning rivojlanishi ona tiliga o'rgatishning quyidagi vazifalarini hal qiladi:

1. Lug'at ishini (keng so'zlar to'plami va undan foydalana olish,muloqot jarayonida so'zlarning sinonim, antonim va amonimlarini qo'llash, fikrni aniq, ravon, to'liq ifodalay olishga yordam beradi);



2. Nutqni grammatik jihatdan to'g'ri shakllantirishni (o'z fikrini soda va yoyiq, ergashgan va bog'langan qo'shma gaplardan, son, sifat, ravish, egalik va kelishik qo'shimchalardan to'g'ri foydalangan holda bayon qilish);

3. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalashni (nutqning aniq, mazmundor, burro bo'lishi).

Katta yoshli bolalarda nutq rivojlanib boradi, shu jumladan uning tovushli tomoni ham. 5–6 yoshli bolalar suhbatda va so'zlashishda faol ishtirok etadilar: tortishadilar, muhokama etadilar, o'z fikrlarini asosli deb biladilar, o'rtoqlarini bunga ishontiradilar. Bolalar shovqinli, hushtakli va jarangdor tovushlarni to'g'ri takrorlay olishadi. Fonematik eshitish, nutqning ifodali intonatsiyasi syujetli – rolli o'yinda va kundalik hayotda she'r o'qiyotganda rivojlanadi. Nutqning grammatik tuzilishi yaxshilanadi. Bolalar nutqning deyarli barcha qismlaridan foydalanadilar, so'zlarni yaratishda faol ishtirok etadilar. So'z boyligi oshib boradi: sinonim va antonimlarni faol qo'llaydi. Bog'langan nutq rivojlanadi. Bolalar takrorlashlari, rasmda so'zlab berishlari, nafaqat asosiy narsani, balki tafsilotlarni ham yetkazishlari mumkin. Endi ular narsa – buyumlarning, hodisalarning nomlarini aytish bilangina chegaralanmaydilar, balki ularning eng xarakterli belgilarini, sifatlarini aytadilar, narsa – buyumlarni yoki hodisalarni yetarli darajada to'liq tahlil qiladilar. Buyumlar va hodisalar o'rtasidagi bazi bir bog'lanishlarni belgilay olish malakasi bolalarning monologik nutqida o'z aksini topadi.

Bog'langan nutq – bu bolaning fikrlarini aniq, izchil va keraksiz tafsilotlarga berilmagan holda bayon etish qobiliyatidir. Bog'langan nutqning asosiy turlari monolog va suhbat hisoblanadi. Suhbatda, so'zlar yangiliklar va shovqinlar bilan to'ldiriladi. Muloqotda savollarni tez va aniq shakllantirish va suhbatdoshingiz bergen savollarga aniq va to'liq javob berish muhimdir.

Monologda tarbiyaluvchi mo'tadil ravishda, hissiy jihatdan so'zlay olishi kerak va ayni paytda fikrlarini tafsilotlarga berilmay bayon eta olishi lozim.

bog'lanishli nutqni rivojlantirishning asosiy vositalari quyidagilardan iborat:

Ertaklar;

- Tarbiyaviy o'yinlar;
- Sahnalashtirilgan o'yinlar.

"Bilim daraxti" nomli interfaol ta'lim taxnologiyasi.

Tarbiyachi varoqlarga savollar yozib, to'rtta faslga moslab daraxtlarga savol varoqlarini osib chiqadi. Bolalar to'rtta guruhgaga bo'linadi. Har bir guruh ishtirokchisi daraxtlarga osilgan savollarni olib javob beradi. Bahor faslidagi daraxtga bahor fasliga doir savollar, yoz faslidagi daraxtga yoz fasliga doir



savollar, kuz faslidagi daraxtga kuz fasliga doir savollar, qish faslidagi daraxtga qish fasliga doir savollar osilgan bo'ladi. Bolalar savollarga tez va aniq javob berishi va o'z guruhidagi boshqa bolaga o'z o'rnini bo'shatishi kerak. Bu mashg'ulot daraxtdagi savollar tugaguncha davom etadi. Topshiriqni birinchi tugallagan va savollarga to'g'ri javob bergan jamoa g'olib bo'ladi. Bu mashg'ulotda bolalar o'z fikrlarini tez va aniq bayon etishni o'rganishadi. Mantiqiy tafakkur rivojlanadi. So'zlarni o'zaro bog'lash qobiliyati rivojlanadi. "Tugallanmagan jumla" nomli interaktiv pedagogik texnologiya.

Bu texnologiyada tarbiyalanuvchilar va tarbiyachi doira hosil qilib o'tirishadi. Tarbiyachining qo'lida koptok bo'ladi. Tarbiyachi fasllarga oid to'liq oxirigacha tugallanmagan gap aytadi va istagan bir bolaga koptokni otadi. Bola aytilgan gapni to'ldiradi. To'liq bo'lмаган so'zlar gaplarning boshidagi, o'rtasidagi va oxiridagi so'z bo'lishi mumkin. Masalan, ... qaldirg'och uchib keladi. Bahorda qaldirg'och uchib keladi; Kuzda daraxt barglari ... Kuzda daraxt barglari sarg'ayadi va hokazo.

Bu texnologiyani qo'llash orqali tarbiyalanuvchilarda to'liq jumla hosil qilish, o'z lug'atidan foydalanib so'zlarni o'zaro to'g'ri bog'lash malakasi rivojlanadi. Bu bog'lanishli nutqning rivojlanishiga zamin yaratadi.

"Guruh hikoyasi" nomli interaktiv pedagogik texnologiya.

Bu texnologiyada tarbiyachi tarbiyalanuvchilarga fasllarga oid hikoya aytadi, tarbiyalanuvchilar bu hikoyani o'zları istagancha davom ettirishadi. Eng qiziqarli tomoni tarbiyachi boshlab bergan hikoyani navbat bilan tarbiyalanuvchilar to'ldirib boradilar. Bir bola tarbiyachi aytgan hikoyani davom ettiradi. Undan keying bola o'zidan oldingi bola aytgan bu hikoyani to'ldirib boraveradi, ya'ni voqealar bir - biriga mos tushishi kerak. Bunda bolalarda hikoyani tuzish, monologik nutq yaxshi rivojlanadi. Mustahkamlash uchun savollar beriladi.

Xulosa. Maktabgacha yoshdagi bolalarning bog'lanishli nutqini rivojlantirishda tarbiyachining o'rni katta ahamiyatga ega. Faoliyat davomida tarbiyachi bolalarga hikoya aytib berishi va shu hikoya to'g'risida savollar berishi kerak. Tarbiyalanuvchilarda bog'lanishli nutqini rivojlantirishda dialogik nutqni ahamiyati katta. Dialogik nutqda to'liq bo'lмаган so'zlar va undovlardan foydalaniladi. Asosan qisqa va to'liq bo'lмаган gaplardan foydalanishadi. Katta guruhda bolalar savollarga aniq va to'liq javob qaytarishadi. O'zaro tortishishadi, o'z fikrini boshqa bolalarga o'tkazishadi va o'z fikrlarini isbotlashga urinishadi. Monologik nutq dialogik nutqqa nisbatan murakkabdir. Chunki monologik nutqning rivojlanishida bola ma'lum bir axborotga nisbatan o'z tushunchasini hosil qilishi va shu tushunchani aniq, to'g'ri, ravon tarzda ifodalay olishi kerak.





Monologik nutqda hikoya tuzish katta ahamiyatga ega. Tarbiyalanuvchilar hikoya tuzish orqali so'zlarni mazmunan va grammatik jihatdan o'zaro bog'lashni o'rganishadi. Bog'lanishli nutq bolalarning yoshiga qarab rivojlanib boradi. Kichik yoshdagi bolalar odatda savollarga ha,yo'q javoblarini berishadi. O'rta guruhga kelib buyumning belgi va sifatlarini, vaqt ni ifodalovchi ravishlarni nutqida qo'llay boshlaydilar. Katta guruhda ergashgan qo'shma gaplardan foydalanish, xulosa chiqarish,muhokama qilish kabilar rivojlanadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida ta'lim jarayonini rejalahtirish.Metodik qo'llanma.Toshkent,2020 – yil;
2. D.R.Babayeva, "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi",Toshkent,2018-yil;
3. "Bolalarning nutqini o'stirish" o 'quv-uslubiy majmua,Buxoro,2019-yil.